

TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNI SAMARALI TASHKIL QILISH MOHIYATI (“ASAKA” BANK AJ FARG’ONA BXM MISOLIDA)

Mirzayev Nodirbek Taxirovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida ichki auditorlik faoliyatining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va istiqbollari tahlil qilinib, uni yanada takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqotda zamonaviy boshqaruv va nazorat usullari — xalqaro audit standartlari, KPI ko‘rsatkichlari hamda byudjetlashtirish mexanizmlari asosida auditorlik jarayonlari, hisob yuritish tizimlari va nazorat funksiyalarining rivojlanish tendensiyalari o‘rganilgan. “Asaka” bank AJ banki misolida markaziy va filial darajasida auditorlik faoliyatining dinamikasi, ichki auditning samaradorligi, moliyaviy nazoratning takomillashuvi hamda bank boshqaruvida auditorlik tizimining o‘rni chuqur tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: auditorlik faoliyati, rivojlanish bosqichlari, “Asaka” bank AJ xalqaro audit standartlari, KPI, byudjetlashtirish, raqamli boshqaruv, ichki audit, avtomatlashtirish.

Abstract. In article the formation, development stages, and prospects of auditing activities in the Republic of Uzbekistan are analyzed, and scientifically grounded proposals for their further improvement have been developed. The study examines the development trends of auditing processes, accounting systems, and control functions based on modern management and monitoring methods — international auditing standards, KPI indicators, and budgeting mechanisms. Using the case Asaka bank AJ an in-depth analysis has been carried out on the dynamics of auditing activities at the central and branch levels, the effectiveness of internal audit, the improvement of financial control, and the role of the auditing system in bank management.

Keywords: auditing activity, development stages, AT Xalq Bank, international auditing standards, KPI, budgeting, digital management, internal audit, automation.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish jarayonida auditorlik faoliyati alohida ahamiyatga ega bo‘lib, u nafaqat xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, balki butun iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Auditorlik faoliyatidan samarali foydalanish natijasida korxonalar moliyaviy hisoboti shaffoflashib, ularning faoliyati ustidan nazorat tizimi kuchayadi va investorlar uchun ishonchli ma’lumotlar taqdim etiladi. Shu nuqtayi nazardan, tijorat banklarida, xususan, “Asaka” bank AJ

bankida auditorlik xizmatlarini rivojlantirish, ularning xalqaro standartlarga mos tarzda tashkil etilishi bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, moliya-bank tizimini isloh etish hamda auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, auditorlik tekshiruvlarini raqamlashtirish, mustaqil auditorlik tashkilotlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va auditorlar malakasini oshirish orqali moliyaviy nazoratning sifatini oshirish choralari ko‘rilmoqda.

Prezident Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da bank tizimi samaradorligi, shaffofligi va raqobatbardoshligini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ushbu strategiya doirasida auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish, banklarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga to‘liq mosligini ta‘minlash hamda “Asaka” bank AJ misolida auditorlik jarayonlarini zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish nazarda tutilmoqda. Bu esa nafaqat banklarning barqaror faoliyatini ta‘minlash, balki mamlakatimiz iqtisodiyotining ochiqligi va investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur jarayonlar O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini samarali tashkil etish va uni yanada takomillashtirish dolzarb masala ekanligini yaqqol ko‘rsatadi. Bugungi kunda global moliya bozoridagi o‘zgarishlar, xalqaro audit standartlarining jadal rivojlanishi hamda iqtisodiy barqarorlik talablarining ortib borishi auditorlik faoliyatini boshqarish metodologiyasini chuqur tahlil qilishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, ushbu metodologiyani milliy bank tizimining o‘ziga xos xususiyatlariga moslashtirish va uni ilg‘or xalqaro tajribalar asosida yanada rivojlantirish zarurati tobora kuchaymoqda. Shu bois, tijorat banklarida, xususan, “Asaka” bank AJ misolida auditorlik faoliyati samaradorligini oshirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta‘minlash va nazorat mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish mamlakatimiz bank sektorining barqarorligi hamda raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida ichki auditorlik faoliyatining hajmi va ko‘lamlari yildan-yilga kengayib bormoqda. Auditorlik xizmatlari tarkibida moliyaviy hisobot auditi, ichki audit, tashqi audit, komplayens tekshiruvlari hamda maxsus konsalting xizmatlari ko‘paygani sari ushbu faoliyatni tashkil etish va boshqarish xarajatlari ham ortib bormoqda. Xizmat turlarining kengayishi natijasida operatsion va boshqaruv xarajatlarining oshishi auditorlik faoliyatining umumiy samaradorligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois auditorlik faoliyatining samaradorligini baholashda – auditorlik xizmatlari rentabelligi, mijozlarga ko‘rsatilgan xizmatlarning sifat darajasi, auditorlik jarayonlari natijasida aniqlangan moliyaviy xatoliklarni bartaraf etish

tezligi, shuningdek, ichki nazorat tizimining mustahkamligi kabi indikatorlarni turli faoliyat yo‘nalishlari kesimida chuqur tahlil qilish zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

Auditorlik faoliyati — tijorat banklari faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, moliyaviy natijalar ishonchliligi, hisob-kitoblarning shaffofligi va operatsion jarayonlarning samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Auditorlik jarayonlari bilan bog‘liq xarajatlar tarkibiga auditorlik xizmatlari uchun to‘lovlar, tashqi ekspertlarni jalb qilish xarajatlari, ichki nazorat tizimini qo‘llab-quvvatlash, axborot texnologiyalarini joriy etish va yangilash bilan bog‘liq mablag‘lar, shuningdek, hisobotlarni tayyorlash va hujjat aylanishini ta‘minlash xarajatlari kiradi.

Auditorlik tekshiruvlarining sifatli va to‘liq amalga oshirilishi nafaqat bankning moliyaviy barqarorligini ta‘minlaydi, balki uning foydalilik ko‘rsatkichlarini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Masalan, aniqlangan moliyaviy xatoliklarni bartaraf etish bankning Audit Quality Indicators (AQI) ko‘rsatkichlarini yaxshilashga, shuningdek, ROA va ROE kabi rentabellik indikatorlarini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, auditorlik faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo‘llash audit jarayonining sifatini oshiradi, tekshiruvlarning tezligini ta‘minlaydi va bankning filiallari hamda markaziy apparati o‘rtasidagi axborot almashinuvini samarali tashkil etadi.

Xususan, raqamli platformalardan foydalanish auditorlik tekshiruvlari natijalarini tezkor tahlil qilish, ichki nazorat mexanizmlaridagi kamchiliklarni erta aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkonini beradi. Natijada, auditorlik faoliyati bankning moliyaviy natijalariga bevosita ta‘sir ko‘rsatib, moliyaviy intizomni mustahkamlash, risklarni kamaytirish va uzoq muddatli barqarorlikni ta‘minlash uchun muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Ilmiy nuqtai nazardan, tijorat banklarida auditorlik faoliyatini shakllantirish va ularning hisobini yuritish jarayonlari bankning moliyaviy barqarorligi hamda faoliyat samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Shu bois, “O‘zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatining rivojlanish bosqichlari va istiqbollari”ni o‘rganish jarayonida, xususan “Asaka” bank AJ misolida, auditorlik faoliyatining samaradorligi quyidagi asosiy jihatlar orqali baholanadi:

- Auditorlik jarayonlari tuzilmasi – auditorlik faoliyatining asosiy bosqichlari, ularning bank tizimi barqarorligidagi o‘rni hamda ichki va tashqi audit xizmatlarining resurslar kesimidagi ulushi aniqlanadi.
- Auditorlik faoliyatining moliyaviy natijalarga ta‘siri – audit jarayonida aniqlangan xatoliklarning bankning rentabelligi, aktivlar samaradorligi va ROA, ROE kabi moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta‘siri chuqur tahlil qilinadi.
- Auditorlikni boshqarish imkoniyatlari – auditorlik jarayonlarini optimallashtirish, audit xarajatlari va foydasi o‘rtasida muvozanatni ta‘minlash,

shuningdek, ichki va tashqi audit faoliyatini samarali integratsiya qilish imkoniyatlari ishlab chiqiladi.

- Raqamli texnologiyalarning roli – auditorlik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, Business Intelligence tizimlari, Big Data tahlili hamda sun'iy intellekt asosidagi continuous auditing yechimlaridan foydalanish orqali audit jarayonlarining tezkorligi, aniqligi va shaffofligini oshirish yo'llari asoslanadi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari auditorlik faoliyatini nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish, uni baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalar yordamida bank tizimida samarali nazorat mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa O'zbekiston tijorat banklarining moliyaviy intizomi va raqobatbardoshligini oshirish, shuningdek, xalqaro standartlarga mos auditorlik tizimini joriy etish uchun muhim ilmiy va amaliy asos yaratadi.

Shu tarzda, auditorlik faoliyatini tizimli tahlil qilish nafaqat moliyaviy intizomni mustahkamlash, balki bank aktivlari rentabelligini oshirish, risklarni kamaytirish va bankning umumiy samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ichki auditorlik nazoratining puxta tashkil etilishi bank faoliyatidagi moliyaviy natijalarning haqqoniyligini kafolatlab, resurslardan samarali foydalanish imkonini kengaytiradi. O'zbekiston bank tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida auditorlik faoliyatini rivojlantirish bo'yicha olib borilgan mahalliy ilmiy izlanishlar milliy moliyaviy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlarda, asosan, auditorlik jarayonini takomillashtirish, banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, ichki nazorat tizimlarini samarali tashkil etish va resurslardan oqilona foydalanish masalalari ustuvor yo'nalish sifatida o'rganilmoqda. Jumladan, iqtisodchi olim I. Juraev o'z ilmiy tadqiqotlarida O'zbekiston tijorat banklarida auditorlik faoliyatini rivojlantirish orqali moliyaviy boshqaruvni kuchaytirish, risklarni kamaytirish va muammoli aktivlar ulushini qisqartirish zarurligini asoslab beradi. Uning fikricha, audit jarayonlarida Risk-Adjusted Return on Capital (RAROC) kabi ilg'or ko'rsatkichlardan foydalanish milliy bank tizimi sharoitida auditorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, bank resurslarining barqarorligini ta'minlash hamda xalqaro standartlarga yaqinlashishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqilayotgan ilmiy yondashuvlar O'zbekiston bank tizimida auditorlik faoliyatini yanada yuqori bosqichga olib chiqishda, "Asaka" bank AJ kabi yirik moliya muassasalarda strategik qarorlarni samarali qabul qilishda hamda milliy moliya bozorini xalqaro standartlarga moslashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda auditorlik faoliyatining samaradorligini tahlil qilish va uni boshqarish jarayonida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirilgan

boshqaruv tizimlari hamda auditorlik sifatini baholovchi metrikalar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda bank tizimini raqamlashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar ham auditorlik amaliyotini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Xalqaro konsalting kompaniyalari — KPMG va McKinsey tomonidan 2023–2024 yillarda e'lon qilingan hisobotlarda qayd etilishicha, moliya institutlarida auditorlik jarayonlarini raqamlashtirishga qaratilgan investitsiyalar auditning tezligi, shaffofligi va aniqligini sezilarli darajada oshiradi. Bu nafaqat nazorat samaradorligini kuchaytiradi, balki bankning umumiy moliyaviy natijalari va risklarni boshqarish sifatini ham yaxshilashda strategik omil sifatida xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasida ichki auditorlik faoliyatini takomillashtirish jarayonida byudjetlashtirish va KPI tizimlarining joriy etilishi muhim o'rin tutadi. Xususan, "Asaka" bank AJ misolida ushbu yondashuvlar auditorlik faoliyatida xarajatlarni reja asosida boshqarish, turli bo'limlar faoliyatini muvofiqlashtirish va mas'uliyatni aniq belgilashga xizmat qiladi. Obara (2012) ta'kidlaganidek, byudjetlashtirish jarayonini samarali tashkil etish orqali rahbarlarda xarajatlarga nisbatan javobgarlik hissi kuchayadi, ichki nazorat mexanizmlari esa yanada mustahkamlanadi. KPI ko'rsatkichlaridan foydalanish esa "Asaka" bank AJda amalga oshirilayotgan auditorlik faoliyatining samaradorligi to'g'risida xolis va tizimli baho berishga imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasida auditorlik faoliyatini takomillashtirish jarayonida tadqiqot dizaynida nazariy va empirik usullarning uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan "Asaka" bank AJ, misolida bu yondashuv auditorlik faoliyati doirasida xarajatlarni chuqur tahlil qilish, nazorat mexanizmlarini rivojlantirish va bankning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur yechimlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi. Nazariy yondashuvlar auditorlik tizimining asosiy tamoyillari, xarajatlarni boshqarish va moliyaviy monitoring mexanizmlarini o'rganishga yordam bersa, empirik tahlillar ularni statistik asosda mustahkamlash imkonini beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Asaka" bank AJda ichki audit xizmati bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi, samaradorligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Ichki audit xizmati tomonidan olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, depozit siyosati va uning tarkibini to'g'ri shakllantirish bankning strategik rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, raqamli depozitlar so'nggi yillarda bank resurs bazasida barqaror ulushni shakllantirib, mijozlarga qulaylik yaratish va xizmatlarni optimallashtirishda asosiy omil sifatida qaralmoqda. Ichki audit xizmatining faoliyati doirasida raqamli depozitlarning turlari, ularning hajmi va bank resurs bazasiga ta'siri muntazam nazorat qilinadi. Talab qilib olinguncha depozitlar likvidlikni ta'minlash vositasi sifatida baholansa, muddatli depozitlar bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi asosiy resurs hisoblanadi. Shu bilan birga, "aqlli"

depozitlar, bonus va sodiqlik dasturlariga asoslangan depozitlar hamda moslashuvchan depozitlar ichki audit xizmatining tahlil ob'ektiga aylangan bo'lib, ularning samaradorligi va mijozlarni jalb etishdagi roli baholanadi.

Ichki audit xizmati nafaqat mavjud depozit mahsulotlarini o'rganadi, balki ularning moliyaviy natijalarga ta'sirini ham tahlil qiladi. Masalan, foiz stavkalarining yuqori bo'lib qolishi bankning sof foiz daromadiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlanib, ushbu risklarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, raqamli kanallar orqali jalb qilingan mablag'lar filial xarajatlarini kamaytirishi va xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishi ichki audit tomonidan ijobiy baholanadi.

Ichki audit xizmatining asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni alohida ta'kidlash mumkin:

- bank resurs bazasining barqarorligini muntazam monitoring qilish;
- depozit siyosatining samaradorligini tahlil qilish va optimallashtirish bo'yicha takliflar berish;
- moliyaviy risklarni, jumladan foiz stavkalari va xarajatlar bilan bog'liq xavflarni baholash;
- raqamli platformalarda kiberxavfsizlikni mustahkamlash choralarini nazorat qilish;
- mijozlarga qulay va xavfsiz moliyaviy xizmatlar taqdim etilishi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, "Asaka" bank AJ" ichki audit xizmatining faoliyati bankning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, depozit siyosatini takomillashtirish, xarajatlarni optimallashtirish va mijozlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratishda muhim rol o'ynaydi. Audit xizmati tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar bankning strategik rivojlanishiga bevosita ta'sir etib, uzoq muddatli istiqbolda raqamli transformatsiya jarayonini samarali amalga oshirishga xizmat qiladi.

1-jadval.

"Asaka" bank AJ ichki audit bo'limiga ajratilgan mablag'lar tarkibi

Xarajat turi	O'lchov birligi	Yillik reja (mlrd so'm)	Amalda (mlrd so'm)	Rejaga nisbatan (%)
Xodimlar ish haqi	mlrd so'm	10,0	9,8	98%
Xodimlarni o'qitish va malaka	mlrd so'm	2,0	1,7	85%
Audit texnologiyalari (IT)	mlrd so'm	3,5	3,6	103%
Konsalting va ekspertiza	mlrd so'm	1,5	1,2	80%
Xizmat safarlari	mlrd so'm	0,8	0,9	112%
Jami	mlrd so'm	17,8	17,2	96%

Manba: bankning IFRS moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Ichki audit tizimi tijorat banklari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni boshqarish va korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. "Asaka" bank AJ misolida ichki audit uchun ajratilgan mablag'lar, ularning umumiy bank xarajatlaridagi ulushi hamda samaradorlik ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilinganda, ushbu bo'lim faoliyati xalqaro standartlarga yaqin darajada yo'lga qo'yilganini ko'rish mumkin. Birinchi navbatda, ichki audit bo'limiga ajratilgan mablag'lar tarkibiga e'tibor qaratilsa, asosiy ulushni xodimlar ish haqi va axborot texnologiyalariga sarmoya tashkil etishi kuzatiladi. Bu esa xalqaro amaliyotga to'la mos keladi, chunki ichki audit samaradorligi ko'p jihatdan inson kapitali va texnologik infratuzilmaga bog'liq. Auditorlarning malakasini oshirishga qilingan sarfning reja darajasidan past bo'lishi esa zaif tomon hisoblanadi, chunki zamonaviy bank muhitida auditorlar muntazam ravishda yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi. Shuningdek, IT texnologiyalariga ajratilgan mablag'larning ortiqcha sarflangani bankning ichki auditda ilg'or yondashuvlarni – masalan, raqamli tahlil, risklarni real vaqt monitoringi va kiberxavfsizlik tekshiruvlarini joriy etayotganidan dalolat beradi.

2-jadval.

"Asaka" bank AJda ichki audit natijalari dinamikasi (mln so'mda)

Yil	O'tkazilgan auditlar soni	Aniqlangan moliyaviy kamchiliklar (mln so'm)	Bartaraf etilgan kamchiliklar (mln so'm)	Tavsiyalar ijrosi (%)
2021	35	42 500	28 300	65%
2022	40	38 200	30 900	72%
2023	45	32 400	27 800	76%
2024	52	29 600	26 100	82%
2025*	55 (prognoz)	27 800	25 900	85%

* 2025 yil ma'lumotlari prognoz asosida keltirilgan.

Manba: bankning IFRS moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2021–2025 yillar davomida "Asaka" bank AJda ichki audit faoliyati barqaror va ijobiy dinamikaga ega bo'lgani kuzatiladi. Bu davr mobaynida bank ichki auditini tashkil etish va uni samarali yuritishda sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Avvalo, o'tkazilgan auditlar sonining ortib borishi bank ichki nazorat tizimining qamrovi kengayganini ko'rsatadi. Agar 2021 yilda 35 ta audit o'tkazilgan bo'lsa, 2025 yilda ularning soni 55 taga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu 5 yil ichida audit qamrovining qariyb 57 foizga kengayganidan dalolat beradi. Audit tekshiruvlari sonining ortishi bank faoliyatining ko'proq sohalari va jarayonlari chuqur tahlil ostiga olinganini bildiradi. Shu bilan birga, aniqlangan moliyaviy kamchiliklar hajmining kamayishi

ham e'tiborga loyiq. 2021 yilda 42,5 mlrd so'mlik kamchiliklar aniqlangan bo'lsa, 2025 yil prognozida bu ko'rsatkich 27,8 mlrd so'mni tashkil etmoqda. Bu jarayon ichki auditning nafaqat kamchiliklarni aniqlash, balki ularning oldini olish va tizimda nazorat mexanizmlarini kuchaytirishga xizmat qilayotganini anglatadi. Ya'ni, moliyaviy intizomning mustahkamlanishi natijasida aniqlanadigan muammolar hajmi yildan-yilga kamayib bormoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda ichki audit bank nazorati tizimi ham shakllangan, bo'lib, O'zbekistonda ichki bank nazorati tizimini tashkil qilish bo'icha huquqiy vameyo'riy baza ham yaratilgan va takomillashib bormoqda. Ichki nazorat tizimi bankning kundalik faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga oid boshqarish mexanizmi bo'lib, boshqarish siyosati va tartibi, majburiyatlarning taqsimlanishi, vakolatlar, tekshirishlar tartibi, kundalik operatsiyalar ustidan nazoratni olib boorish va ular hisobini yuritish, harajatlarni nazorat qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Ichki audit nazorat tijorat banklarining ichki nazorat boshqarmasi va filiallarning ichki nazorat bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ichki audit nazorat tizimini yanada islohotlash yordamida, banklar o'zlariga o'tkan xatolar va kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf qilish uchun kerakli qarorlar va takliflar berishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida, xususan "Asaka" bank AJ misolida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, auditorlik faoliyatining rivojlanishi riskka asoslangan yondashuv va zamonaviy texnologiyalarga integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish va uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Auditorlik faoliyatining istiqbollari esa xalqaro standartlar (COSO, Basel, IIA) bilan uyg'unlashgan holda nazorat samaradorligini yanada yuksaltirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda bank mijozlari va investorlar ishonchini oshirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Ishonchli malumotlar tizimlari:

Banklar tomonidan ishlatiladigan ma'lumotlar tizimlari ham ichki audit samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ishonchli malumotlar tizimlari, banklar tomonidan olib borilayotgan mablag'lar, shaxsiy ma'lumotlar, hisob-kitob jarayoni va boshqa ma'lumotlarni maxfiy tarzda saqlashga yordam beradi.

Ichki audit samaradorligini oshirish, banklar uchun katta muammo bo'lib turadi, chunki banklar tomonidan olib borilayotgan risklar va kamchiliklar yanada keng tarqaladi. Shuning uchun, banklar ichki nazoratning samaradorligini oshirish yo'llari mavjudligini tahlil qilish va ularni amalga oshirishga harakat qilishlari lozim. Bundan tashqari, banklar ichki nazoratning yanada qo'shimcha samaradorligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilishi mumkin:

Risklar tahlilini yanada yanada oshirish:

Banklar tomonidan o'zlariga xos risklar mavjud bo'lgani uchun, ularning tahlilini yanada samaraliroq oshirish lozim. Risklar tahlilini yanada yanada oshirish, banklar uchun kamchiliklarni va qayd etilgan normativlarga rioya qilishni taminlaydi. Ichki nazorat tizimini integratsiya

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduraxmonov, Q. X. (2019). Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent: Fan va texnologiya.
2. Azizov, U., & Karaliev, T., & Bobokulov, T. (2018). Bankovskoe delo: Uchebnoe posobie. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
3. Bessis, J. (2015). Risk Management in Banking (4th ed.). Chichester: Wiley.
4. Choudhry, M. (2022). The Principles of Banking (2nd ed.). Singapore: Wiley.
5. Fabozzi, F. J. (2010). Foundations of Financial Markets and Institutions (4th ed.). Boston: Pearson.
6. Greenbaum, S. I., Thakor, A. V., & Boot, A. (2019). Contemporary Financial Intermediation (4th ed.). Amsterdam: Elsevier.
7. Heffernan, S. (2005). Modern Banking (2nd ed.). Chichester: Wiley.
8. Koch, T. W., & MacDonald, S. S. (2014). Bank Management (8th ed.). Mason: South-Western Cengage Learning.
9. Mishkin, F. S. (2019). The Economics of Money, Banking and Financial Markets (12th ed.). New York: Pearson.
10. Omonov, A. A., & Koraliev, T. M. (2018). Dengi i banki. Toshkent: Iqtisod-Moliya.
11. Tashxodjaev, M. (2014). Korporativ boshqaruvni takomillashtirish. Toshkent: Iqtisod-Moliya.